



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Begmatova Dilnoza Muxtarovna¹
Umarova Feruzabonu Bobir qizi²

¹Samarqand davlat chet tillari instituti dotsenti, p.f.f.d.(PhD)

Tel: +998 93 9999050, Email: dbegmatova@list.ru

Samarqand davlat universiteti Maktabgacha ta'lim fakulteti magistranti

Tel: +998932240445, Email: umarovaferuzka97@gamil.com

OILADA YOSHLARNING KASBIY IJTIMOIYLASHUVINI TA'MINLASHDA O'ZBEK XALQ IJODIYOTI

Annotatsiya. Mazkur maqolada oilada kasbiy ta'lim hamda hunar malakalarini shakllantirishga oid qarashlar, g'oyalar va tarbiyaviy tamoyillarni o'zbek folklorida kasbiy tarbiya va uning ahamiyati masalalari ko'rib chiqilgan. Jumladan, o'zbek xalqi ma'naviy merosi tarkibida maqol, matal, aforizm, hikmatlar, ibratli so'zlar, qo'shiqlar, laparlar, dostonlar, erkalanmalar, topishmoq, ertak, afsonalar va avloddan avlodga o'tib kelayotgan boshqa janrlar orqali xalqning ma'lum bir mavzuga oid hayotiy tajribalari va aqidalari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ta'lif, tarbiya, odob, axloq, oila, jamiyat, yosh avlod.

Аннотация. В данной статье рассматриваются взгляды, идеи и ценности профессионального обучения в семье и важность профессионального образования в узбекском фольклоре. В частности, духовное наследие узбекского народа включает в себя пословицы, притчи, афоризмы, добрые слова, песни, лапары, стихи, сказки, головоломки, легенды и другие жанры жизни.

Ключевые слова: образование, воспитание, нравы, этика, семья, общество, молодое поколение.

Annotation. This article discusses the views, ideas and values of vocational training in the family and the importance of vocational education in Uzbek folklore. In particular, the spiritual heritage of the Uzbek people includes articles, parables, aphorisms, proverbs, kind words, songs, lapars, poems, tales, puzzles, legends and other genres of life.

Keywords: *education, upbringing, manners, ethics, family, society, young generation.*

Kirish.

Xalq pedagogikasiga oid umumiy nazariy qarashlar negizida xalq pedagogikasining kasbiy ta'lim hamda hunar malakalarini shakllantirishga oid qarashlari, g'oyalari va tarbiyaviy tamoyillari masalasini kuyidagi bo'limlar asosida qarab chiqish mumkin: a) o'zbek folklorida kasbiy tarbiya va uning ahamiyati; b) xalq o'yinlarida kasbiy ko'nikmalarning ifodalanishi; v) oilada mehnatga o'rgatish kasbiy ijtimoiylashuv omili sifatida; g) xalq hunarmandchiligi va kasbiy ijtimoiylashuv masalalari. Mazkur yo'naliishlardan o'zbek folklorida kasbiy tarbiya va uning ahamiyati masalalarini ko'rib chiqamiz: O'zbek xalqi ma'naviy boy xalqlardan sanaladi. Uning tarixi qanchalik uzoq o'tmishta borib taqalsa, o'zbek xalqi ma'naviyati ham shunchalik qadimiyydir. Xalq ma'naviyatining o'ziga xos qirralaridan biri xalq ijodiyoti sanaladi. O'zbek xalqi ma'naviy merosi tarkibida maqol, matal, aforizm, hikmatlar, ibratli so'zlar, qo'shiqlar, laparlar, dostonlar, olqish, erkalanmalar, topishmoq, ertak, afsonalar va boshqa janrlar orqali xalqning ma'lum bir mavzuga oid hayotiy tajribalari va aqidalari avloddan-avlodga o'tib keladi. Xalq ijodiyoti xalq ma'naviyatini saqlaguvchi unsur sanaladi. O'zbek xalqining xalq ijodiyoti namunalari tarkibida aynan kasb hunarga aloqador bo'lgan turli maqol, ibratli so'zlar, aforizmlar, matallarni ko'plab uchratsa bo'ladi. Xalq ijodiyoti millatni tarbiya qilishning bosh omillaridan biri sanaladi. Bizning jamiyatimizda raqobatbardosh oliy malakali turli kadrlarga bo'lgan talab oshib borayotgan bir davrda xalq ijodiyoti namunalari bosh vazifaning joriy etilishiga xizmat qiluvchi vositaga aylanadi.

Ayniqsa, agar oilada:

farzandlarning kasbiy kamoloti va hunarlarni egallahsga bo'lgan tabiiy qiziqishi oilada ta'minlansa hamda mazkur jarayonda xalq ma'naviyati va xalq pedagogikasi namunalaridan unumli foydalanilsa, farzandlarning kasbiy ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgan shart-sharoit yaratilsa, mana shu oilada tarbiya qilinayotgan farzandning o'z xalqi madaniyati va ma'naviy qadriyatlari bo'yicha bilimi ortadi, uning jamiyatga bo'lgan kasbiy integratsiyasi ta'minlanadi;



xalq pedagogikasidan foydalanish keng joriy etilsa, oilada yoshlarning kasbiy ijtimoiylashuvini ta'minlash uzviylik, uzlucksizlik va tarixiylik asosida olib borilgan bo'ladi hamda bo'lg'usi kadrlarning umummadaniy saviyasi va layoqati milliy asosda shakllantirilgan bo'ladi. Shunga ko'ra, juda ko'p xalq ijodiyoti namularida kasb hunar mavzusiga aloqador o'rinalar uchraydi.

Masalan, "Zar qadrini zargar biladi", "Bosh omon bo'lsa, do'ppi topiladi" kabi maqollarda kasbiy hususiyatlar inson xarakteri, uning fe'l-atvorini ochiq oydin namoyish etish uchun xizmat qiladi.

Oilada yoshlarda kasbiy ijtimoiylashuvni ta'minlashda o'zbek xalq ijodiyoti, ya'ni o'zbek xalq maqollari, matallari, aytishuvlari, laparlari, naqllari, hikmatlari v.b. orqali o'sib kelayotgan yosh avlod inson qadrini taniy boshlaydi (O'rganish – bir hunar, O'rgatish – ikki hunar), halollikka va poklikka o'rganadi (Shogirding oqil bo'lsa, boshingda toj, Shogirding erka bo'lsa, boshda tayoq), jamiyatga foyda keltirib yashay boshlaydi (Yaxshi bilsang ishingni, yaxshilar silar boshingni), ravnaq va obodlikni ta'minlashga o'rganadi (Hunar bo'lsa qo'lingda, non topilar yo'lingda), mehnatsevarlikka o'rganadi (Hunar oshatar, Mehnat yashnatar), boshqa insonni mehnatini qadrlay boshlaydi (Har kimning ishi emas uloq ulamoq, madrasaga borib tuproq yalamoq), ota-onan o'rnini taniydi, ularga hurmati oshadi (Ota kasbi – davlat kasbi, ota hunari – bolaga meros), ustozlarni taniy boshlaydi, ularning mehnatiga minnatdorlik hissi tarbiya qilinadi (Ustoz ko'rgan xat tanir, ustozsiz shogird –jonsiz kesak), odamlarni, ularning qaysi kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar hurmatlashga o'rganadi (Kasbning yomoni yo'q), kasb hunarning foydasini anglashga o'rganadi (Hunari borning oltin bilagi bor), o'zining kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarini doimiy oshirishga sayi-harakat qiladi (Shogird ustadan o'tmasa, ish yitar), kasbu hunarning jamiyatda qadrlanishiga ishonch paydo bo'ladi (Barakat - mag'izda, hunarli qo'l - og'izda), ilmga va ilmli odamlarga hurmati oshadi, ilm ortida katta mehnat turishini anglaydi, ilm va aql yoshda emas, boshda ekanligini ko'radi (Ilmi borni yosh dema, ilmi yo'qni bosh dema).

Agar xalq laparlaridan misol keltiradigan bo'lsak, hammaga juda yaxshi ma'lum bo'lgan kuyidagi: Erta bilan turaman nahori nashta, O'ng qo'limda igna-yu tizzamda kashta, ashulada bir tomondan aynan xalq hunarmandchiligining alohida bir yo'nalishi, ya'ni kashtachilik haqida gapirilayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, mana shu kashta tikish faoliyati orqali inson xarakteri, uning fe'l-atvoriga xos bo'lgan mehnatsevarlik, erinmaslik, muntazam ishlash, toqat va sabr kabi xususiyatlar ochib ko'rsatilmoqda.



O‘zbek xalqi mehnat an'analari ichida o‘z zimmasidagi vazifalarga mas'uliyat bilan yondoshish, hunar va kasb sirlarini erinmay o‘rganish, tanlangan kasb va hunarni egallahda mazkur hunar va kasb bo‘yicha belgilangan ilmlarni egallah, ilm olishdan hunar sirlarini o‘rganishni boshlash, qunt qilish, yigit kishi uchun hunar olish yigit kishining barkamolligi namunasi ekanligi borasidagi xalq irodasi va ma'naviy qadriyatlari jam bo‘lgan. Yigit kishi uchun hunarli bo‘lish zarur ekanligi barcha maqol va matallar, ibratli so‘zlar mazmunini tashkil qiladi. Masalan, aytildikи: “Yig‘it xusni – hunar”. Erkak kishiga hunarli va kasbu korli bo‘lish ham qarz, ham fazr ekanligi uqtiriladi, erkak kishi uchun hunarsiz bo‘lish uyat ekanligi targ‘ib qilinadi.

Adabiyotlar tahlili

O‘zbek mumtoz adabiyoti namoyondalari, islom allomalari va mutafaakir olimlar ijodida ta'kidlangan o‘rinlar aslida xalq tafakkuri va aqidalaridan kuch oladiyu shunga ko‘ra, o‘zbek xalq ijodiyotida ham kasbu hunarning asosida ilm turishi, kasbni egallahda ustoz o‘rni masalalari atroflicha talqin qilinadi.

Ilmsizga ishonch yo‘q, Hunarsizga quvонch yo‘q

*** Ilm egarlangan ot, Bilganga do‘st, bilmaganga – yov.

*** Hunar - tugamas hazina.

*** Hunar to‘yg‘izar, Ot mindirib, to‘n kiygizar.

*** Hunar - oqar buloq, Ilm - yonar chiroq

Xalq ijodiyotida va an'analarida ilmning inson hayotidagi o‘rni va hamiyatiga juda katta o‘rin beriladi. Ilm o‘rganish orqali inson yuqori martaba, baxt va saodatga erishishi mumkinligi ta'kidlanadi. Ammo har qinday ilmni emas, balki to‘g‘ri, foyda keltiradigan ilmni egallah darkorligi uqtiriladi:

Oltin olma, bilim ol, Bilim olsang, bilib ol.

*** Yuz tuman oltindan hunar yaxshi

Mana shunday aniq ma'naviy ko‘rsatmalar va qarorlar asosida farzandning yoshlik vaqtidan boshlab, nima asl zaru, nima zar bo‘lgani bilan, insonga baxtu saodat va ro‘schnolik keltira olmasligi bayon qilinadi. Bola ma'naviy qadriyatlar tizimi ichida haqiqiy qadriyatlarni o‘ziga singdirib ulg‘ayadi. Ma'lem ma'naviy qadriyatlardan voz kechgan holda moddiy boylikka erishish vaziyati paydo bo‘lganda to‘g‘ri qaror qila olish malakalariga ega bo‘ladi. Ayniqsa, bugungi zamondagi jamiyatda ma'naviy qadriyatlarga bo‘lgan talab ortib borayotgan davrda o‘z insoniyagini saqlab qolish uchun tarbiya qilingan zarur ichki ma'naviy kodeks unda shakllantirilgan bo‘ladi. Xuddi shu ichki ma'naviy kodeks insonni turli xatoliklardan saqlab qolishga asos bo‘lib xizmat qiladi. Binobarin, xalq ijodiyotida mavjud kasbu hunar borasidagi bayon qilingan aqidalar inson ichki ma'naviy kodeksini shakllantirish uchun xizmat qiladi.



Ilmning qudrati, uning kuchi va taraqqiyotdagi tutgan o‘rniga juda yuqori baho beriladi. Ilm olish inson shakllanishi jarayonidagi muhim jabhalardan biri ekanligini o‘zbek xalqi eng qadimgi davrlardan beri yaxshi anglagan bo‘lib, farzandlarga ilmning kuchini ko‘rsatish va uning axamiyatigi namoyon etish uchun, ilm suvni ham “yondirish” qudratiga ega bo‘lgan voqelik ekanligi qisqa formula orqali bayon qilinadi:

Ilm-u hikmat suvni yondirar.

*** Yuz tuman oltindan hunar yaxshi.

*** Yuzga kirsang, yuz yil o‘qi.

*** Yuzga kirsang ham hunar o‘rgan

*** Yuziga qarama, bilimiga qara.

O‘zbek xalqi kasbu hunar, ilm olish va ustozlarga hurmat qo‘rsatish borasidagi o‘z aqidalarini farzandlarga uqtirilmoqchi bo‘lgan ma’noni aniq ifoda etadigan qisqa shakllar yordamida farzandlar tafakkuriga aniq ma’naviy va ma’rifiy formula sifatida singdirishga urinadi. Mazkur ma’naviy va ma’rifiy formulalar butunligicha, isbotsiz qabul qilinishga mo‘ljallangan bo‘ladi. Mazkur formulalarni shakllantriishda xalq ochiq, bor butunicha, butun haqiqatni ochiq ifoda etish yo‘lidan boradi. Shu bois, aniq va xalq tajribasiga asoslangan kuyidagi maqollar kelib chiqadi:

Tasbeh ag‘darganning bari mulla emas, Tayoq tutganning bari cho‘pon emas.

*** Tekin boylik axtarguncha o‘zingga bir hunar top.

*** Teshik idish suvda bilinar, Bilimi oz kishi – sinovda.

*** Tikkan chevar emas, Bichgan chevar.

*** Piligi yo‘q chiroq yonmas, Biligi yo‘q yigit yaramas.

*** Piring kuchli bo‘lguncha, Biliming kuchli bo‘lsin.

*** Poxoldan somon chiqmas, Qo‘poldan olim chiqmas.

Asosiy qism

Ta’kidlangan maqol va matallarga o‘zbek xalqining kasbi va hunar orqali ijtimoiylashuviga doir fikrlar ochiqligi, aniqligi va ma'lum bir falsafiy-tarbiyaviy natijalilikka asoslanganligi ko‘rish mumkin. Ya’ni, mehnat qilish va kasbu hunarga ega bo‘lishda biror bir asbobni qo‘lga olgan bilan, bilim va tajriba mashaqqatidan o‘tilmagan bo‘lsa, inson bari bir mazkur sog‘a bo‘yicha mutaxassis sifatida qabul qilinmasligi birinchi maqoda aytilmoqda. “Tekin boylik yo‘lidan ketma” degan aqidaviy talabning yoniga “o‘zingga bir hunar top” deyish bilan, “boylikka teng keladigan boshqa bir asos bor, u ham bo‘lsa – hunardir” deydigan foida targ‘ib qilinmoqda. Bilimi sayoz kishining taqdiri teshik idishdagi suvga o‘xshatilishi orqali, bilimsiz kishi teshik idishdagi suv kabi oqib ketaverishi, o‘zini to‘la nomoyon qilib, martabagi etishi olmasligi bayon qilinmoqda. .



Shuningdek, keyingi maqollardan birida “piligi yo‘q chiroq – bilim, yoki hunari yo‘q yigitga” o‘xshatilmoqda. Ikkalasini ham yonmasligi, ya’ni o‘z vazifasining uddasidan chiqa olmasligi ayon. Hayotda ba’zi bir odamlarning, xususan yoshlarning o‘z kuchiga emas, balki biror bir “katta” odamning (masalan, otasining) kuchi va mavqeiga ishonib ish ko‘rishi qoralanmoqda, yoshlarni mana shunday qilishdan, birovning kuchiga ishonib yashashdan qaytarilmoqda. Tabiiyiki, mana shunday aniq ma’naviy yo‘llanmalar shaklida berilgan maqol, matal, ibratli so‘z va aforizmlar yoshlар tafakkurida o‘shandayn aniq, ma’lum maqsadga xizmat qiladigan, yoshlар tafakkurini ilm, mehnat, aql, hunar, kasbga nisbatan hurmat asosida maqsadli tarbiyalaydigan xalq boyligi, o‘zbek xalqi pedagogikasining tarbiyaviy omillaridan biridir.

Yuqorida keltirilgan maqol asosida bola tafakkuri va fe'l-atvorida aqli bo‘lishga intilish, aql orqali ko‘p narsalarni halol va pok qo‘lga kitirish, hunar o‘rganish, hunar orqali esa jamoa oldida katta mavqega bo‘lish istagi shakllantiriladi. Mazkur istak bolani faqat to‘g‘ri qarorlar qabul qilish, o‘z orzu havachiga etishish uchun harakatga undaydi. Shu asosda bolaning kasbiy ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan hayot tarzi tashkillashtiriladi. Mazkur tafakkur va fe'l-atvor bolaning hayotiy qadriyati va mezoniga aylanadi hamda uning jamiyat hayotida faol bo‘lib, o‘z hayotini to‘g‘ri qadriyatlar asosida tashkil qilishiga qo‘maklashadi. Ammo oilalarni amaliy o‘rganish jarayonida ko‘pchilik ota-onalar kasb va hunarlar borasidagi maqol, matal, ibratli so‘zlar, ashula va hikmatlarni bilsalar ham, oilaviy amaliyotda faol qo‘llamasliklari, ularni maktab uchun saqlab qo‘yanliklari, mazkur xalq ijodiyoti namularining pedagogik ahamiyatini nazarga olmasliklari ma’ulm bo‘ldi.

Ota-onalar xalq ijodiyoti namunalarini yaxshi bilsalar ham, aynan ota-onalar mazkul xalq ma’naviy boyligi bilan o‘z farzandlarini tanishtirib borishi lozimligi bilmaydilar. Ota-onalar bu vazifani o‘zining zimmasidagi tarbiyachilik vazifasi sifatida anglamaydilar. Shuning uchun ham juda katta ma’naviy meros o‘z xolicha yashaydi, bolalar tafakkuri esa o‘z xolicha shakllantirilishi holati kuchli ekanligi ma’lum bo‘ldi. Ilm juda katta ma’naviy boylik hisoblanadi. Qadimgi davrlardan boshlab ilm oltinga teng qadriyat ekanligi ta’kidlangan. Uni pulga sotib olib bo‘lmasligi har bir davrda ta’kidlangan. Ilm paydo bo‘lishi insonning shaxsan o‘zining katta mehnati va qobiliyati, uning qunt bilan o‘rganishi negizida vujudga keltirilishini hamma biladi. Ammo jamiyatlardagi turli tarixiy davrlarda ilmga nisbatan turli vaziyatlar hukm surishi mumkin. Bugungi avlodlar ilmnинг har qanday boylikdan ustun turishini aniq anglab etishlari darkor bo‘ladi.



Shunga ko‘ra, agar bolalik davridan boshlab ilm borasidagi mavjud xalq qadriyatlari qonuniyat tarzida bolaga singdirilsa, bolaning o‘z kasbi va ilm olishda mashaqqat chekishi lozimligi jarayonlari engil kechgan bo‘lar edi. Kasbu hunarning inson hayotidagi o‘rn ni borasida xalq oddiygina qilib, agar hunarga ega bo‘sang, qorning nonga to‘yadi” degan qarashni targ‘ib qiladi, ya’ni:

Hunar oshatar, Mehnat yashnatar.

*** Hunar bo‘lsa qo‘lingda, Non topilar yo‘lingda.

Xalq ijodiyotida kasbu hunarga ega bo‘lishning bosqichma-bosqichlilik, oddiydan murakkabga qarab sa’yi-harakat qilishlik, har bir bosqichning uzviylik va uzlusizlikda tashkil qilinishi, inson faoliyatining ham aqliy, ham jismoniy mehnat turlarini o‘z mazmuniga qamrab olish, o‘quv jarayonini esa ustoz-shogird uslubi asosida tashkil qilish negiziga qurilgan

Kasb hunarni o‘rganish – ilm olish va ilmni kimdan olish, ilmni qanday olish kabi texnologiyasi asosida tashkil etiladi. Shuning uchun xalq an'analarida ustoz-shogird munosabatlariga keng o‘rin beriladi. Xalq ijodiyotida ham ustoz-shogird munosabatlarining turli qirralari aks etadi. Masalan, ustozning ta’lim jarayonidagi betakror ahamiyati borasida quyidagi maqolda aytilgan: Ustoz ko‘rmagan shogird har tomonga yo‘rg‘alar. Ustoz bor bilimni o‘z shogirdiga berish jarayonida o‘zidagi bilim va tajribalarni erinmay va holisona shogirdiga terishi darkor, agar bunday qilmasa, aslida shogirdini tarbiyalagan va o‘stirgan bo‘lmaydi, balki unga halaqit bergen bo‘ladi. Haqiqiy ustoz o‘z shogirdida uning imkoniyatlari va layoqatlarini keng ochish va rivojlantirish yo‘lidan borishi lozim. Shunga ko‘ra, boshqa bir maqolda shunday ta’kidlanadi:

Ustdan shogird o‘zar

*** Ustani shogird sindirar, Pistani po‘choq.

Ustoz va shogirdning bevosa aloqalari borasida ham xalq pedagogikasi o‘ziga xos talab va normalar ishlab chiqilgan. Ularga asosan ustoz va shogird munosabatlari mehr, ishonch, hamkorlik asosiga qurilgan bo‘lmog‘i lozim. Ana o‘shanda shogird yuragida xolis minnatdorlik xissi uyg‘onadi, ustoz yuragida esa shogirdining yutuqlaridan xolis g‘urur xissi yuzaga keladi. Xalq pedagogikasida ustoz va shogird o‘rtasida dildan bog‘liqlik bo‘lishi kerakligi talab qilinadi, mana shu o‘zaro munosabatlarning mustahkamligi, shogird faqat ustozi tufayli shogirdlikdan ustozlik sari yo‘l olishi kuyidagi maqollar orqali bayon etiladi:

Har ishning bir ustasi bor, Har ustuning bir ustozi bor.

*** Har hunarning o‘z siri bor, Har ishning o‘z eri bor.



Xalq pedagogikasi asosida ustozning shogird oldidagi mas'uliyati taqozo etiladi. Ustoz o'z shogirdiga mehribonlik bilan erinmay saboq berishi, barcha o'z bilganlarini xolis shogirdiga o'rgatishi, shogirdini aniq natijalarga olib kelishi zarur. Xalq pedagogikasida o'quv jarayonida albatta natjalilikka erishishga sayi-harakat qilingan. Agar shogird biror natijagi kelmasa, unda ustoz mehnatidan yo voz kechilgan, yo mazkur ustoz uquvsiz ustoz nomini olgan. Ustoz va shogird munosabatlarida saboq olish va uning natijalari, ustozlik mehnatining mashaqqatlari, o'ylari va ustoz mehnati qadri masalalari borasida kuyidagi maqolda so'z boradi, ya'ni:

Shogirdiga tosh bergen tosh olar, Bosh bergen bosh olar.

Ammo xalq ijodiyotida har bir shogird ham iste'dodli va layoqatli shogird bo'la olmasligi borasidagi hayotiy vaziyatlar ham o'z aksini topgan. Uquvsiz, va yoki o'qish va kasbu hunarni egallahsga moyil bo'lмаган shogird hech zamonda natija va yutuqqa kela olmasligi ta'kidlangan. Shogirdning uquvsizligi tarbiya va ta'lim jarayoni sifatini buzishi tan olingan. Shogirdning mana shunday qiyofasi kuyidagi maqollarda ochiq va yorqin namoyon etiladi.

Shogirding oqil bo'lsa, boshingda toj. Shogirding erka bo'lsa, boshda tayoq.

*** Shogirdning befarosati, Ustozni muttaham qilar.

*** Shogird ustadan o'tmasa, ish yitar.

*** Uquvi bor ulg'ayyar, Uquvi yo'q sarg'ayar.

Xulosa va takliflar

Xalq ijodiyotida har qanday kasbni egallah uchun o'quv, qo'nim, qaonat, sabr, shijoat va jur'at bo'lishi lozimligi qayd etiladi. Shunga ko'ra, ba'zi kimsalarning o'ziga xos xarakterlar qirralari o'z kasbi va yoki hunariga bo'lган munosabat orqali ochib beriladi. Masalan: Otolmagan yoy tanlar. Otolmagan ovchi yoyidan ko'rар. "Kasbning yomoni yo'q" aqidasi negiziga qurilgan xalq idroki kasbu hunarni hayotning mag'zi deb hisoblaydi. Xalq pedagogikasida er kishi uchun turli kasb va hunarlarni o'rganish mazmunli hayot, savobli ish, farovon turmush, barakali kun, oila va jamiyat ravnaqiga teng keltiriladi: Barakat - mag'izda, Hunarli qo'l - og'izda. O'zbek xalqi kasb hunarga o'rgatish bo'yicha juda qadimiy an'analarga ega. Mazkur an'analar tarkibida ustoz va shogird munosabatlari, o'quv va o'rgatish jarayonining mehr va muruvvat asosiga qurilishi shogirdning o'z ustozi rayiga bo'ysunishi lozimligi, ustoz va shogirdning bosh vazifasi o'zaro ilm va tajriba almashish asosida tashkil qilinishi, shogird o'ziga biror kasb yoki hunarni o'rgatgan insonni o'z otasi sifatida ko'rishi va unga nisbatan har doim hurmat saqlashi kerakligi kabilardan iboratdir.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Mahmudova M., Kasb haqida o‘ylar. Metodik qo‘llanma., Toshkent, 1992 y. 20 b.
2. Begmatova D., Oilada yoshlarning kasbiy ijtimoiylashuvini ta’minlashning pedagogik shart-sharoitlari. Ped.fan. bo‘yicha fals. dok. (PhD) diss. ... Samarqand, 2019., 101 b. 3.
3. Shodiev N., Islomov V., To‘lqiniy M. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish. Samarqand. 2015.- 134 b.
4. Koshg‘ariy M. “Devonu lug‘atit turk” I tom. -Toshkent.: 1960.
5. Mirzayev T. “O‘zbek xalq maqollari”. –Toshkent: 2003.
6. O‘zbek xalq maqollari. –Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi, 2009.
7. O‘zbek xalq maqollari. – Toskent: Sharq 2012